

FUQAROLAR MUROJAATI: MUAMMOLAR YeCHIM TOPMOQDA

Bugun O'zbekiston Respublikasi Toshloq tumani Xalq qabulxonasida o'tkazilgan hokim qabuli odamlar dard, tashvishlariga sherik bo'lish, muammolarini yechishga qaratildi.

Qabulda fuqarolar uy-joy, yer va kredit ajratish, bandlik, tadbirdorlik, tibbiy xizmat, elektr hamda tabiiy gaz ta'minoti kabi masalalar bo'yicha murojaat etishdi.

Qabul davomida 23 ta murojaat ro'yxatga olindi. Jumladan, joyida qanoatlantirilgan murojaatlar soni 9 tani, asosli tushuntirish berilganlar soni 10 tani, ko'rib chiqilishi nazoratga olingan murojaatlar soni 4 tani tashkil etdi.

Shuningdek qabulda sektor rahbarlari ham ishtirok etib, fuqarolar murojaatlari yuzasidan huquqiy tushunchalar berdilar.

2024-06-25 12:27:42